

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi**

Toshkent shahri,

2020-yil “ 2 ” ~~avgust~~ *avgust*

№ 87-06-683

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi**

Toshkent shahri,

2020-yil “ 28 ” avgust

№ 04-13/2245

**Oliy ta‘lim muassasalari rektorlari
va filiallar direktorlariga**

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqining
Qoraqalpog‘iston Respublikasi,
viloyatlar va Toshkent shahar
Kengashlari raislariga**

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, 2020/2021-o‘quv yiliga tayyorlash, talabalar orasidan shijoatli, g‘ayratli, yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lganlarini aniqlash, yangi o‘quv yili uchun yetakchilarni demokratik tamoyillarga asoslangan holda saylovlarini o‘tkazish maqsadida joriy yilning 6-7-oktabr kunlari guruh yetakchilari, 10-15-oktabr kunlari fakultet yetakchilari, 21-22-oktabr kunlari oliy ta‘lim muassasasi yetakchisi saylovlari o‘tkaziladi.


Shu munosabat bilan, quyidagilarni:

- joriy yilning 1-oktabrgacha barcha oliy ta‘lim muassasalarida saylovlar o‘tkazilishi bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va OAVda e‘lonlar berish;
- umumiy saylov hamda guruh, fakultet va muassasa yetakchilarining saylovlarini tashkil etishda oliy ta‘lim muassasalari rahbarlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlarini mas‘ul etib belgilash;
- saylovlarni belgilangan tartib va nizom asosida karantin qoidalariga amal qilgan holda demokratik tamoyillar asosida yuqori saviya hamda ko‘tarinki ruhda tashkil etish;
- saylovlarni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini ta‘minlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni belgilash;
- saylovlar yakunlari bo‘yicha bayonnoma nusxalarni tegishlilik bo‘yicha O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tuman (shahar) Kengashlarida jamlanishini tashkil etishingiz so‘raladi.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vaziri o‘rinbosari**


Y. Absoatov

**O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi raisi v.b.**


A. Jumaboyev



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2020-yil "_____" avgustdagi _____, _____-sonli xatiga 1-ilova

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar yetakchilari saylovlarini o'tkazish T A R T I B I

Yoshlar yetakchilarining saylovlari o'quv yilining boshi (oktabr oyi)da o'tkaziladi.

Saylovlar besh bosqichda tashkil etiladi:

Birinchi bosqich - barcha guruhlarda guruh yetakchilari saylanadi;

Ikkinchi bosqich - barcha fakultetlar yetakchilari saylanadi;

Uchinchi bosqich - hududiy Kengashlar tavsiyasi asosida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi tomonidan belgilab berilgan oliy ta'lim muassasalarida yetakchilar saylanadi;

To'rtinchi bosqich - Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yoshlar Kengashi a'zolari saylanadi;

Beshinchi bosqich – Respublika Yoshlar Kengashi a'zolari saylanadi.

Guruh yetakchilarini saylash tartibi:

Har bir guruh rahbari tomonidan telegram ijtimoiy tarmog'ida guruh raqami bilan nomlangan alohida guruh ochiladi va barcha talabalar mazkur guruhga a'zo bo'ladi.

Yetakchilikka nomzodlar o'zining dasturlarini mazkur guruhda tushuntirib boradi.

Har bir nomzodga saylov kunidan bir kun oldin yetakchilikka nomzodlar o'z dasturi, yetakchiga yuklatilgan vazifalarni qaysi yo'l bilan bajarishi to'g'risida ma'lumotlar, Nomzodlikka qo'yilgan talabalar qay tarzda o'zlariga yuklatiladigan vazifalarni amalga oshirmoqchi ekanliklari to'g'risida 10 daqiqali taqdimot yoki videorolik joylashtiradi.

Saylov kuni mazkur tarmoq orqali guruh rahbari tomonidan anonim so'rovnoma shakllantiriladi hamda ovoz beriladi. So'rovnoma ertalab 08:00 dan kechki 20:00 ga qadar davom etadi.

Eng yuqori ovoz olgan ishtirokchi mazkur guruh yetakchiligiga saylanadi

Guruh yetakchilari saylovi guruh talabalari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida amalga oshiriladi

Yetakchilarining saylovida faqat mazkur guruh talabalari qatnashishlari lozim.

Guruh yetakchilari bir yil muddatga saylanadi.

Fakultet yetakchilarini saylash tartibi:

Har bir fakultet dekanining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari tomonidan telegram ijtimoiy tarmog'ida fakultet nomi bilan ataladigan alohida guruh ochiladi va barcha talabalar mazkur guruhga a'zo bo'ladi.

Yetakchilikka nomzodlar o'zining dasturlarini mazkur guruhda targ'ibot qilib boradi.

Har bir nomzodga saylov kunidan bir kun oldin o'z dasturi, yetakchiga yuklatilgan vazifalarni qaysi yo'l bilan bajarishi to'g'risida ma'lumotlar, qo'yilgan talabalarni qay tarzda amalga oshirmoqchi ekanliklari to'g'risida 10 daqiqalik prezentatsiya yoki videorolik joylashtiradi.

Saylov kuni mazkur fakultetning yoshlar masalasi bo'yicha dekan o'rinbosarlari tomonidan anonim so'rovnoma shakllantiriladi hamda ovoz beriladi.

So'rovnoma ertalab 08:00 dan kechki 20:00 ga qadar davom etadi.

Eng yuqori ovoz olgan ishtirokchi mazkur fakultet yetakchiligiga saylanadi

Guruh yetakchilari saylovi guruh talabalari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida amalga oshiriladi.

Yetakchilarining saylovida faqat mazkur fakultet talabalari qatnashishlari lozim.

Fakultet yetakchilari ikki yil muddatga saylanadi.

Saylovda g'olib bo'lgan nomzod o'z kengashini shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasasi yoshlar yetakchilarini saylash tartibi:

Oliy ta'lim muassasasi yoshlar yetakchilari saylovida talabalarning barchasi ishtirok etadi.

Oliy ta'lim muassasasi yoshlar masalalari bo'yicha prorektorlari tomonidan oliy ta'lim muassasasining telegram kanali orqali yetakchilikka nomzodlarning dasturlari joylashtirib boriladi.

Har bir nomzodga saylov kuni dan bir kun oldin o'z dasturi, yetakchiga yuklatilgan vazifalarni qaysi yo'l bilan bajarishi to'g'risida ma'lumotlar, o'qiyotgan talabalarni qay tarzda amalga oshirmoqchi ekanliklari to'g'risida 10 daqiqalik prezentatsiya yoki videorolik joylashtiradi.

Saylov kuni oliy ta'lim muassasasining yoshlar masalalari bo'yicha prorektorlari tomonidan anonim so'rovnomaga shakllantiriladi hamda ovoz beriladi.

So'rovnomaga ertalab 08:00 dan kechki 20:00 ga qadar davom etadi.

Eng yuqori ovoz olgan ishtirokchi mazkur oliy ta'lim muassasasi yetakchiligiga saylanadi.

Oliy ta'lim muassasasi yetakchilari saylovi OTM talabalari tomonidan umumiy, teng huquq asosida amalga oshiriladi.

Yetakchilar saylovida faqat mazkur oliy ta'lim muassasasi talabalari qatnashishlari lozim.

Saylovchilarning 33 (o'ttiz uch) foizidan kam qatnashgan saylov o'tmagan deb topiladi.

Universitet yetakchilari bir yil muddatga saylanadi.

Saylovda g'olib bo'lgan nomzod o'z kengashini shakllantiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yetakchilar Kengashi a'zolarini saylash tartibi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yetakchilar Kengashi a'zolari O'zbekiston yoshlar ittifoqi Ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirish, O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman (shahar) Kengashlari faoliyatini takomillashtirishda faol ishtirok etadigan Kengash a'zolari hisoblanadi.

Yetakchilar Kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar "Kamalak" bolalar tashkilotida jamlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yetakchilar Kengashi a'zolari bir yil muddatga saylanadi.

Respublika Yetakchilar Kengashi a'zolarini saylash tartibi:

Respublika Yetakchilar Kengashi a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yetakchilar Kengashi a'zolari uchun noyabr oyida tashkil etiladigan "Birlashib, biz katta kuchmiz!" shiori ostidagi o'quv-seminari doirasida saylanadi.

Guruh, fakultet, oliy ta'lim muassasasi yoshlar yetakchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Yetakchilar Kengashi a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limida jamlanadi.

Respublika Yetakchilar Kengashi a'zolari bir yil muddatga saylanadi.